

12 OKTABR 2022 yil

Kasbi tuman

Baydoqchi Bunyodkor MCHJ (tashkilot, korxona nomi) keyingi o'rinlarda "Pudratchi" deb yuritiladi. O'zining nizom (nizomi, ustavi, ishonchnoma) asosida ish yurituvchi rahbari S.Poydayev (vazifasi, familiyasi, ismi) nomidan, bir tomondan va Kasbi tuman hokimligi (korxona, tashkilot, muassasa nomi), keyingi o'rinlarda "Buyurtmachi" deb yuritiladi, o'zining nizom (nizomi, ustavi, ishonchnoma) asosida ish yurituvchi M.Jo'rayev (vazifasi, familiyasi, ismi) nomidan, ikkinchi tomondan mazkur shartnomani quyidagilar haqida tuzdilar.

### 1. SHARTNOMANING PREDMETI

1.1. Ushbu shartnoma bo'yicha "Pudratchi" «Buyurtmachi»ning buyurtmasiga asosan va tuzilgan loyiha smeta hujjatlariga asosan Kasbi tuman Talishbe MFY ma'muriy binosini kapital ta'mirlash ishlarini bajarishni, «Buyurtmachi» esa bajarilgan ishlarni qabul qilib olishni hamda to'lovni amalga oshirishni o'z zimmalariga oladilar.

1.2. Ushbu shartnomaning umumiy summasi 67 505 000 ( Oltmish etti million besh yuz besh ming ) so'mni tashkil qiladi.

### 2. SHARTNOMA BO'YICHA KELISHUV NARXLAR

2.1. Buyurtmachi» tomonidan taqdim qilingan hujjatlarga asosan ta'mirlash ishlarining qiymati 67 505 000 ( Oltmish etti million besh yuz besh ming ) so'mni tashkil qiladi.

2.2. Ta'mirlash ishlarining boshlanishi «12» OKTABR 2022 yil.

2.3. Ta'mirlash ishlarining tugashi vaqti «31» DEKABR 2022 yil.

### 3. TAMIRLASH ISHLARINI BOSHLAGAN, BAJARISH VA TUGATISH BO'YICHA SHARTNOMAVIY MUDDATLAR

3.1. Ta'mirlash ishlarini bajarish muddati mazkur shartnomaning 2.3. bandida ko'rsatilgan muddatgacha amalga oshiriladi.

3.2. SHartnomadagi 4.2-bandida ko'rsatilgan avansni «Pudratchi» olgandan sung ta'mirlash ishlarini boshlaydi. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021 yil 16 martdagi №139-sonli qarori 1- bandiga asosan byudjetdan mablag' oluvchilarning byudjet mablag'lari hisobiga tuziladigan shartnomalarida qoidaga kura 30 foiz miqdorida oldindan haq to'lashi lozim.

3.3. «Buyurtmachi» tomonidan kapital ta'mirlash ishlarini bajarish davrida «Pudratchi»ga o'zi tomonidan xarid qilingan ta'mirlash materiallarini taqdim qilishi mumkin.

3.4. Ta'mirlashni to'xtat qolganligi uchun sababchi bo'lgan tomon buning oqibatida kelib chiqadigan har qanday kamomad yoki javobgarlikni o'z zimmasiga oladi.

3.5. Ta'mirlashni tugallab foydalanishga topshirish uchun tuzilgan komissiya dalolatnomasi tasdiqlangandan so'ng ta'mirlash ishlari tamom bo'lgan deb hisoblanadi.

### 4. TO'LOV SHARTI VA TARTIBI

4.1. «Buyurtmachi» to'lovni pul o'tkazish yuli bilan amalga oshiradi.

4.2. Bajariladigan qurilish va o'rnatish ishlari uchun buyurtmachi oldindan 30% to'lov 20 251 500 so'mni 2022 yil "\_\_\_" "\_\_\_\_\_" da amalga oshiradi. Qolgan 70 %, ya'ni 47 253 500 so'mni ishlar bajarilganligini tasdiqlovchi hujjat taqdim qilingandan so'ng amalga oshiradi.

4.3.«Pudrat» tashkiloti tomonidan shartnomada ko'rsatilgan summadan oshiqcha bajarilgan ishlar uchun «Buyurtmachi» tomonidan to'lovlar amalga oshirilmaydi.

## **5. PUDRATCHINING MAJBURIYATLARI**

5.1. Shartnoma bahosi 67 505 000 ( Oltmish etti million besh yuz besh ming ) bo'lgan ta'mirlash ishlari yuqorida kelishilgan muddatda tugatish va foydalanishga topshirish.

5.2. Maxsus ta'mirlash ishlarini bajarish uchun maxsus yollanma pudratchi tashkilotlarni jalb qiladi.

5.3. Har haftaning dushanba kunida joriy haftada bajarilgan ta'mirlash montaj ishlari to'g'risidagi tegishli hujjatlarni «Buyurtmachi»ga taqdim qilishi shart. Agar ta'mirlash mazkur shartnomada ko'rsatilgan muddatda pudratchining aybi bilan foydalanishga topshirilmasa, u holda buyurtmachiga quyidagi tartibda penya va jarima to'laydi: -Tovarlarni yetkazib berish muddatlari kechiktirib yuborilgan, to'liq yetkazib berilmagan, ishlar bajarilmagan yoki xizmatlar ko'rsatilmagan hollarda, tovar yetkazib beruvchi sotib oluvchiga kechiktirilgan har bir kun uchun majburiyat bajarilmagan qismining 0,5 foizi miqdorida penya to'laydi, biroq bunda penyaning umumiy summasi yetkazib berilmagan tovarlar, bajarilmagan ishlar yoki ko'rsatilmagan xizmatlar bahosining 50 foizidan oshib ketmasligi lozim. Penyani to'lash yetkazilgan zararni qoplashdan ozod etmaydi. -Agar yetkazib berilgan tovarlar, bajarilgan ishlar yoki ko'rsatilgan xizmatlar sifati, assortimenti va navi bo'yicha standart talablarga mos kelmasa sotib oluvchi tovarlarni (ishlar, xizmatlarni) qabul qilish hamda ularning haqini to'lashni rad etib, yetkazib beruvchidan sifati, assortimenti va navi lozim darajada bo'lmagan tovarlar (ishlar, xizmatlar) qiymatining 20 foizi miqdorida jarima undirib olishga, agar tovarlar (ishlar, xizmatlar) haqi to'lab qo'yilgan bo'lsa, to'langan summani belgilangan tartibda qaytarishni talab qilishga haqlidir. Sifati, assortimenti va navi lozim darajada bo'lmagan tovarlar (ishlar, xizmatlar) yetkazib berganlik uchun jarima yetkazib beruvchidan aktseptsiz tartibda undirib olinadi.

5.4. Pudratchi shartnomada nazarda tutilgan mablag' doirasida ishlarni bajaradi va shunga muvofiq bajarilgan ishlar to'g'risida 2-sonli dalolatnomani tuzadi.

5.5.Yetkazib berilgan tovarlar (ishlar, xizmatlar) haqini o'z vaqtida to'lamaganlik uchun sotib oluvchi (buyurtmachi) yetkazib beruvchiga o'tkazib yuborilgan har bir kun uchun kechiktirilgan to'lov summasining 0,4 foizi miqdori, ammo kechiktirilgan to'lov summasining 50 foizidan ortiq bo'lmagan miqdorda penya to'laydi

## **6. BUYURTMACHINING MAJBURIYATLARI**

6.1. Shartnomada ko'rsatilgan 4.1. va 4.2. bandlari buzilsa, «Buyurtmachi» maxsus hisob-raqamidan har bir kechiktirilgan kun uchun shartnomaning to'lanmagan narxini 0,04% miqdorida «Pudratchiga» penya to'laydi.

6.2. «Buyurtmachi» ta'mirlash ishlarini o'z vaqtida belgilangan standartlarga va amaldagi qonunchilikka asosan qabul qilib oladi.

6.3. "Buyurtmachi" tasdiqlangan smetasiga muvofiq byudjetda nazarda tutilgan mablag' doirasida shartnoma tuzadi va shartnoma summasiga muvofiq 2-sonli dalolatnomani «Pudratchi» bilan birgalikda tuzadi

## 7.TOMONLAR O'RTASIDA SHARTNOMAVIY NIZOLARNI HAL ETISH

7.1.Ushbu shartnoma asosida kelib chiqadigan har qanday nizolar O‘zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiliklari talablariga asosan Iqtisodiy sudlarida hal etiladi.

## 8.SHARTNOMANING AMAL QILISH MUDDATI

8.1. Mazkur shartnoma ikki nusxada tuzilib, bir xil yuridik kuchga ega bo'lib hisoblanadi va tomonlarning har biri uchun bir nusxadan beriladi. Shartnoma 31.12.2022-yilga qadar amal qiladi.

## 9. SHARTNOMANING QONUNYIY KUCHGA KIRISHI

9.1.Ushbu shartnoma tuman G'aznachilik bo'linmalarida ro'yxatdan o'tgandan so'ng kuchga kirgan hisoblanadi va 31,12,2022 yilgacha amalda bo'ladi.

## 10.BOSHQA HOLATLAR.

10.1. Tomonlar shartnoma majburiyatlari yuzasidan o'zaro hamkorlik qilib turadilar.

## 11. TOMONLARNING YURIDIK MANZILLARI VA BANK REKVIZITLARI

|                                                                                                                                                                                                                                                                                                                        |                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                       |
|------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|-----------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|
| <p><b>“PUDRATCHI”</b><br/> <b>“Baydoqchi Bunyodkor” MCHJ</b><br/>         Manzil: Kasbi tuman Baydoqchi qishlog'i<br/>         Tel; +998912620708<br/>         xr :20208000205440033001<br/>         Банк: АТ Kasbi tuman<br/>         Xalq banki<br/>         МФО: 00697 ИНН: 308861972<br/>         OKONX: _____</p> | <p><b>“BUYURTMA CHI”</b><br/>         Kasbi tuman hokimligi<br/>         Manzil: Kasbi tuman markazi<br/>         Tel:<br/>         Shxr:301821860102377011402018002<br/>         NN:201803275 MFO: 00014<br/>         OKONX: 97600<br/>         Bank: Markaziy Bank Toshkent<br/>         G'azna: Moliya Vazirligi G'aznachiligi<br/>         G'azna xr: 23402000300100001010<br/>         G'azna INN: 201122919</p> |
| <p>Rahbar _____ S.Poydayev</p>                                                                                                                                                                                                      | <p>Rahbar _____ M.Jo'rayev</p>                                                                                                                                                                                                                                                                                                    |

Ушбу шўраб шартномасини шарт-  
ларини шунақа шўраб Ушбу

## «ТАСДИКЛАЙМАН»



Касби туман хокими ўринбосари:

М.Жўраев

12.10. 2022 йил

Касби тумани

“Обод кишлоқ” дастури асосида Касби туман Талишбе МФЙ маъмурий биносини капитал таъмирлаш ишлари буйича энг яхши таклифларни танлаш комиссиясининг

### ТАНЛОВ КОНКУРС БАЁНИ:

С.Турдиев

Комиссия котиби; Бош мутахассис

АЪЗОЛАРИ:

Т.Турсунов

Хоким уринбосари

Б.Уринов

Бош хисобчи

Т.Исмоилов

Хокимлик юристи

Ш.Зиётов

Бош мутахассис

### Кун тартибида куриладиган масала:

“Обод қишлоқ” Давлат дастури асосида Касби туманидаги Талишбе МФЙ маъмурий биносини капитал таъмирлаш ишлари бўйича энг яхши таклифларни танлаш учун 2022 йил октябрь ойида қурилиш корхоналари билан шартнома қилиш ва шартномани тасдиқлаш тўғрисида.

Комиссия танлов конкурсга қатнашган вакилларнинг таклифларини кўриб чиқиб, “Обод қишлоқ” Давлат дастури асосида Касби туманидаги Талишбе МФЙ маъмурий биносини капитал таъмирлаш ишлари бўйича 2 та хусусий корхона қатнашаётганлигини эълон қилди. Улар қуйидагича:

Энг яхши таклифларни танлаш бўйича 2022 йил 30 сентябрь кунда лот № 22110012157867- сонли эълон қуйилгандан кейин 2 та ташкилот ўзини таклифлари билан қатнашди ва энг юқори балл билан “БАЙДОҚЧИ БУНЁДКОР” МЧЖ танлов ғолиб деб топилди ва 2 кун муҳокамада қўйилди ҳамда бошқа эътирозлар булмагандан кейин “БАЙДОҚЧИ БУНЁДКОР” МЧЖ билан пудрат шартномаси тузилди.

### ТАНЛОВ КОНКУРС КОМИССИЯ ҚАРОР ҚИЛАДИ:

1. “БАЙДОҚЧИ БУНЁДКОР” МЧЖ ғолиб деб топилсин.
2. Ушбу баённома қарорини бажарилишини назорат қилиш бош хисобчи Б.Ўриновга юклатилсин.

Комиссия котиби:

С.Турдиев

АЪЗОЛАРИ:

Т.Турсунов

Б.Ўринов

Т.Исмоилов

Ш.Зиётов

**Протокол закупочной комиссии по отбору наилучшего предложения лот № 157867 на приобретение Обод кишлок дастурига асосан Касби туман Талишбе МФЙ маъмурий биноси капитал таъмирлаш ишлари**

Способ проведения электронный

Дата 07.10.2022

Время рассмотрения 07.10.2022 17:53

Закупочная комиссия Касби туман хокимлиги, (Далее – Комиссия) в составе:

|                              |                                        |                                                   |                          |
|------------------------------|----------------------------------------|---------------------------------------------------|--------------------------|
| <b>Председатель комиссии</b> | JO'RAYEV<br>MUHAMMADJON<br>MIRZAYEVICH | Иктисодий масалалар<br>буйича хоким<br>уринбосари | Касби туман<br>хокимлиги |
| <b>Секретарь комиссии</b>    | TURDIYEV SOBIR<br>ALIQULOVICH          | бош мутахассис                                    | Касби туман<br>Хокимлиги |
| <b>Член комиссии</b>         | TURSUNOV TUROP<br>XAMRAYEVICH          | Курилиш буйича хоким<br>уринбосари                | Касби туман<br>хокимлиги |
| <b>Член комиссии</b>         | ISMOILOV TUYMUROD<br>RAXMONOVICH       | Хокимлик юристи                                   | Касби туман<br>Хокимлиги |
| <b>Член комиссии</b>         | O'RINOV BOBIR<br>RO'ZIQULOVICH         | бош хисобчи                                       | Касби туман<br>Хокимлиги |
| <b>Член комиссии</b>         | ZIYOTOV SHUHRAT<br>ERGASHEVICH         | бош мутахассис                                    | Касби туман<br>хокимлиги |

Рассмотрев поступивших предложений со стороны участников по опубликованному объявлению на специальном информационном портале от 07.10.2022 года № лота 157867.

Метод оценки предложений – Бальный метод (Весовой коэф.техничко-квалификационной части: 70.00 / Весовой коэф. ценовой части: 30.00)

Мин. балл: 40

Предмет закупки:

|                                             |                                               |
|---------------------------------------------|-----------------------------------------------|
| <b>Наименование товара (работы, услуги)</b> | <b>Работы по строительству нежилых зданий</b> |
| Подробное описание                          | Ишлар сифатли бажарилиши шарт                 |
| Количество товара                           | 1.00                                          |
| Единица измерения                           |                                               |
| Цена товара (услуги) за единицу             | 64 205 000.00                                 |
| Стартовая сумма                             | 64 205 000.00                                 |
| Валюта                                      | UZS                                           |

|                                             |                                               |
|---------------------------------------------|-----------------------------------------------|
| <b>Наименование товара (работы, услуги)</b> | <b>Работы по строительству нежилых зданий</b> |
| Подробное описание                          | Ишлар сифатли бажарилиши шарт                 |
| Количество товара                           | 1.00                                          |
| Единица измерения                           |                                               |
| Цена товара (услуги) за единицу             | 3 395 000.00                                  |
| Стартовая сумма                             | 3 395 000.00                                  |

|        |     |
|--------|-----|
| Валюта | UZS |
|--------|-----|

По итогам рассмотрения поступивших предложений по технической части участникам присвоены следующие баллы:

Критерий №1 Танлов иштирокчисининг иш ҳақи жамгармаси ва ходимлар ўртача сони бўйича кўрсаткичлар

Тип: Текстовое значение

Описание: Танлов иштирокчисининг иш ҳақи жамгармаси ва ходимлар ўртача сони бўйича кўрсаткичлар (Ходимлар сони ва тажрибаси тўғрисида маълумотлар)

Обязательность: Не критично

| Наименование участника                             | Макс балл | Значение участника | Балл участника | Тип оценки | Примечание | Причина |
|----------------------------------------------------|-----------|--------------------|----------------|------------|------------|---------|
| <b>BAYDOQCHI BUNYODKOR MCHJ</b>                    | 10        | 67505000           | 10             | Экспертная |            |         |
| <b>ООО ДОСТОНБЕК МАHSUS -- QURILISH TA'MIRLASH</b> | 10        | 67600000           | 8              | Экспертная |            |         |

Критерий №2 Танлов иштирокчисини салоҳияти

Тип: Текстовое значение

Описание: Танлов иштирокчисини салоҳияти (Пудрат ташкилоти электрон рейтинги тўғрисидаги маълумот.Тўловга қодирлиги ва айланма маблағлар билан таъминланганлиги тўғрисида маълумотлар.Солиқ ва бошқа тўловлардан қарздорлиги мавжуд эмаслиги)

Обязательность: Не критично

| Наименование участника                             | Макс балл | Значение участника | Балл участника | Тип оценки | Примечание | Причина |
|----------------------------------------------------|-----------|--------------------|----------------|------------|------------|---------|
| <b>BAYDOQCHI BUNYODKOR MCHJ</b>                    | 15        | 67505000           | 12             | Экспертная |            |         |
| <b>ООО ДОСТОНБЕК МАHSUS -- QURILISH TA'MIRLASH</b> | 15        | 67600000           | 5              | Экспертная |            |         |

Критерий №3 Танлов иштирокчиси ҳақида умумий маълумотнома

Тип: Текстовое значение

Описание: Танлов иштирокчиси ҳақида умумий маълумотнома (Низом ва гувоҳномадан, таъсисчи ва раҳбарнинг паспорт нусхалари, СТИР рақамлари, Статистик маълумотлар)

Обязательность: Не критично

| Наименование участника                             | Макс балл | Значение участника | Балл участника | Тип оценки | Примечание | Причина |
|----------------------------------------------------|-----------|--------------------|----------------|------------|------------|---------|
| <b>BAYDOQCHI BUNYODKOR MCHJ</b>                    | 10        | 67505000           | 10             | Экспертная |            |         |
| <b>ООО ДОСТОНБЕК МАHSUS -- QURILISH TA'MIRLASH</b> | 10        | 67600000           | 10             | Экспертная |            |         |

Критерий №4 Танлов буюртмасини таъминлаш кафолати

Тип: Текстовое значение

Описание: Танлов буюртмасини таъминлаш кафолати (Талабгор ташкилот таъмирлаш ишларини сифатли ва белгиланган муддатда тугатиши бўйича расмий кафолат хати тақдим этиш шарт(Қайта ташкил этиш, тугатиш ва банкротлик ҳолатларида эмаслиги: буюртмачи билан суд ёки арбитраж муносабатларига киришмаганлиги; аввал тузилган шартномалар бўйича мажбуриятларнинг тегишли даражада бажармаслик ҳолатлари мавжуд эмаслиги)

Обязательность: Не критично

| Наименование участника                      | Макс балл | Значение участника | Балл участника | Тип оценки | Примечание | Причина |
|---------------------------------------------|-----------|--------------------|----------------|------------|------------|---------|
| BAYDOQCHI BUNYODKOR MCHJ                    | 10        | 67505000           | 10             | Экспертная |            |         |
| ООО ДОСТОНБЕК МАHSUS -- QURILISH TA'MIRLASH | 10        | 67600000           | 2              | Экспертная |            |         |

Критерий №5 Танловдаги объектга ўхшаш объектларда иш тажрибаси

Тип: Текстовое значение

Описание: Танловдаги объектга ўхшаш объектларда иш тажрибаси (бажарилган ишлар ҳажми ҳисоб-фактураси маълумотномаси) ва Ф-5 маълумотлари)

Обязательность: Не критично

| Наименование участника                      | Макс балл | Значение участника | Балл участника | Тип оценки | Примечание | Причина |
|---------------------------------------------|-----------|--------------------|----------------|------------|------------|---------|
| BAYDOQCHI BUNYODKOR MCHJ                    | 10        | 67505000           | 5              | Экспертная |            |         |
| ООО ДОСТОНБЕК МАHSUS -- QURILISH TA'MIRLASH | 10        | 67600000           | 10             | Экспертная |            |         |

Критерий №6 Ишларни бажаришда фойдаланиладиган танлов иштирокчисининг машина ва механизмлари мавжудлиги

Тип: Текстовое значение

Описание: Ишларни бажаришда фойдаланиладиган танлов иштирокчисининг машина ва механизмлари рўхати мавжудлиги (Ишларни бажаришда фойдаланиладиган танлов иштирокчисининг машина ва механизмлари рўхати (ижара асосида фойдаланилса ижара шартномаси ва бошқа ҳужжатлар))

Обязательность: Критично

| Наименование участника                      | Макс балл | Значение участника | Балл участника | Тип оценки | Примечание | Причина |
|---------------------------------------------|-----------|--------------------|----------------|------------|------------|---------|
| BAYDOQCHI BUNYODKOR MCHJ                    | 15        | 67505000           | 15             | Экспертная |            |         |
| ООО ДОСТОНБЕК МАHSUS -- QURILISH TA'MIRLASH | 15        | 67600000           | 8              | Экспертная |            |         |

Оценка участников финансовой части составила:

| Наименование участника | Стартовая сумма | Предлагаемая сумма | Сумма с учетом конвертации (UZS) | Применение преференции | Общее значение (UZS) | Дата предложения    | Оценка стоимости (балл) |
|------------------------|-----------------|--------------------|----------------------------------|------------------------|----------------------|---------------------|-------------------------|
| ООО ДОСТОНБЕК          | 67 600 000.00   | 67 600 000.00 UZS  | 67 600 000.00                    | 00.00                  | 67 600 000.00        | 07.10.2022 12:40:47 | 29.95784                |

|                                      |                  |                      |               |       |                  |                        |    |
|--------------------------------------|------------------|----------------------|---------------|-------|------------------|------------------------|----|
| MAHSUS --<br>QURILISH<br>TA' MIRLASH |                  |                      |               |       |                  |                        |    |
| BAYDOQCHI<br>BUNYODKOR<br>MCHJ       | 67 600<br>000.00 | 67 505 000.00<br>UZS | 67 505 000.00 | 00.00 | 67 505<br>000.00 | 06.10.2022<br>12:07:41 | 30 |

Заказчик вправе применить преференцию в отношении отечественных производителей

Итоговая оценка участников включая финансовую часть составила:

| Наименование участника                          | Общий балл по<br>технической части | Общий балл по<br>финансовой части | Итоговый<br>балл |
|-------------------------------------------------|------------------------------------|-----------------------------------|------------------|
| ООО DOSTONBEK MAHSUS --<br>QURILISH TA' MIRLASH | 43.0003                            | 29.95784                          | 72.95814         |
| BAYDOQCHI BUNYODKOR MCHJ                        | 61.9997                            | 30                                | 91.9997          |

Закупочная комиссия по отбору наилучшего предложения лот № 157867 от 07.10.2022 года на приобретение Обод кишлок дастурига асосан Касби туман Талишбе МФЙ маъмурий биноси капитал таъмирлаш ишлари определила победителем:

BAYDOQCHI BUNYODKOR MCHJ  
308861972

и резервный исполнитель: ООО DOSTONBEK MAHSUS -- QURILISH TA' MIRLASH (305956301)

Проголосовали

| Комиссия                 | Ф.И.О.                              | Голосование | Комментарии |
|--------------------------|-------------------------------------|-------------|-------------|
| Председатель<br>комиссии | JO'RAYEV MUHAMMADJON<br>MIRZAYEVICH | Согласен    |             |
| Член комиссии            | TURSUNOV TUROP XAMRAYEVICH          | Согласен    |             |
| Член комиссии            | ISMOILOV TUYMUROD RAXMONOVICH       | Согласен    |             |
| Член комиссии            | O'RINOV BOBIR RO'ZIQULOVICH         | Согласен    |             |
| Член комиссии            | ZIYOTOV SHUHRAT ERGASHEVICH         | Согласен    |             |

Протокол закупочной комиссии подписан посредством ЭЦП